

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/04.06.2021.T.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

POLVONOV NURBEK OMONBOYEVICH

**KONCHILIK KORXONALARIDAGI TASMALI KONVEYERLAR
ROLIKLARI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARINI ISHLAB
CHIQISH**

04.00.16 – Konchilik mashinalari

**texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Polvonov Nurbek Omonboyevich

Konchilik korxonalaridagi tasmali konveyerlar roliklari ish samaradorligini oshirish usullarini ishlab chiqish..... 3

Полвонов Нурбек Омонбоевич

Разработка способов повышения эффективности работы роликов ленточных конвейеров на горнодобывающих предприятиях 21

Polvonov Nurbek Omonboyevich

Development of ways to improve the efficiency of rollers of belt conveyors at mining enterprises..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 44

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/04.06.2021.T.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

POLVONOV NURBEK OMONBOYEVICH

**KONCHILIK KORXONALARIDAGI TASMALI KONVEYERLAR
ROLIKLARI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARINI
ISHLAB CHIQISH**

04.00.16 – Konchilik mashinalari

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.2.PhD/T4619 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ndki.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ataqulov Lazizjon Nematovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Egamberdiyev Ilxom Pulatovich
texnika fanlari doktori, professor

Toshov Javoxir Bo'riyevich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

«Olmaliq kon metallurgiya kombinati» AJ


Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc.17/04.06.2021.T.06.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 26-dekabr soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 210100, Navoiy shahri, Maxmud Tarobiy ko'chasi, 72-uy. Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66; e-mail: info@ndki.uz, nsmi@gmail.com.


Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (172 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 210100, Navoiy shahri, Maxmud Tarobiy ko'chasi, 72-uy. Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «11» dekabr kuni tarqatilgan.
(2024 yil «7» dekabrda 155 raqamli reestr bayonnomasi).




I.T. Mislibayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor


R.U. Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor


A.B. Tuxtashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda konchilik ishlab chiqarish jarayonlarida foydali qazilmalarni tashish ishlari umumiy qazilmalarga ketgan xarajatning 70 % ni tashkil etishi transport mashinalariga bo'lgan e'tiborni oshiradi. Transport mashinalaridan tasmali konveyer transportining qo'llanilishi esa tashish masofasining qisqarishi, ekologiyaning ifloslantirish darajasining pasayishi, energiya samaradorlikning oshishiga olib keladi. Tasmali konveyer yuk tushish joylarida rolik va tayanch roliklar hamda ularning elementlariga ta'sir etuvchi kuchlar asosida zo'riqmalarning hosil bo'lishi ushbu joydagi roliklarning tez ishdan chiqishiga va konveyer samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib keladi hamda konveyer transportining rejali va rejadan tashqari to'xtalishlar sonini oshishiga olib keladi. Yuqorida inobatga olingan omillar ta'sirida tasmali konveyer roliklari va rolik tayanchlarida kelib chiqadigan nosozliklar tufayli ularning umumiy rejali to'xtalishi 23,7% ni tashkil etadi. Shuning uchun tasmali konveyer transportining kon sanoati taraqqiyotida kundan kun yuksalib borishi, konlarda foydali qazilmalarni va tog' jinslarini tashish ishlarida, kon transport mashinalari jihozlari modernizatsiya qilish, mahalliyashtirish, qayta jihozlash, ularni takomillashtirish hamda tasmali konveyer rolik va rolik tayanchlarining ish samaradorligini, ta'mirlash ishlari sifatini oshirishni talab etadi.

Dunyoda bugungi kunda tasmali konveyerlarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish, konchilik ishlari jarayonlarida tashish ishlarini xavfsiz va sifatli olib borish, ularni samarali ishlashini ta'minlash, tasmali konveyerning yuk tushish joylarida roliklar va ularning tayanchlariga tushayotgan yuklamalarning ta'sir kuchini so'ndirish usullarini ishlab chiqish va konveyer roliklar va tayanchlari konstruksiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada tasmali konveyerlar faoliyatining ishonchliligini, bardoshliligini, samaradorligini oshirish, takomillashtirish, ishchi elementlarining nosozliklarini kamaytirish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida olib borish, xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda qazilayotgan foydali qazilma va tog' jinslarini tashishda tasmali konveyer roliklarini bardoshliligi, ishonchliligi, sifatini ta'minlash, ta'mirlashni resurs tejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish asosida konveyer rolik va rolik tayanchlari ishchi elementlarini xizmat muddatini oshirish bo'yicha ilg'or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilib, bir qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida¹ «Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash uchun investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish va kon-metallurgiya sanoatidagi yirik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish» kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4124 sonli «Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 17 yanvar 2019 yildagi Qarori.

vazifalardan kelib chiqqan holda, tasmali konveyer yuklash joylarida tushayotgan yuk ta'sirida rolik va rolik tayanchlari ishchi elementlarini takomillashtirish, konstruksiyasini o'zgartirish va moylash tizimini yangi usulini ishlab chiqish asosida tasmali konveyer samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi, 2015-yil 4-martdagi PF-4707-son «Ishlab chiqarishni strukturaviy qayta tuzish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni ta'minlash bo'yicha 2015-2019-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonlari va 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4124-son «Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. «Yer to'g'risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom ashyolarni qayta ishlash)» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tasmali konveyerlar rolik va rolik tayanchlari konstruksiyasini o'zgartirish, podshipniklarni moylash tizimini asoslash, yuklash joylaridagi ta'sir kuchlarni optimallashtirish nazariyasi va amaliyotini rivojlanishiga Ye.Ye. Sheshko, V.I. Brenner, V.I. Galkin, V.N. Getopanov, V.N. Dmitriyev, V.N. Yefimov, L.I. Kantovich, N.G. Kartaviy, V.S. Kvagenidze, Yu.D. Krasnikov, B.N. Kutuzov, V.I. Morozov, R.Yu. Poderni, I.L. Pastoyev, Ya.M. Radkevich, G.S. Raxutin, V.M. Racheka, V.I. Rusixin, G.I. Solod, M.R. Xromoy, J. Antoniak, J.A. Dos Santos, M. Thompson, A. Jennings, F. Langebrake, J. Klein, R. Keerthika, M. Jagadeeswari, K. Dhamodharan, K. Hari Prasad, B. Kamesh Gautham va boshqalar katta hissa qo'shishgan. Ular tomonidan tasmali konveyerlarni ishonchligini va samaradorligini oshirishda ishlatish tannarxini resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llash asosida kamaytirish bilan bog'liq katta natijalarga erishganlar.

Biroq, bugungi kunda tasmali konveyer rolik va rolik tayanchlarining ishchi elementlarini takomillashtirish, rolik konstruksiyasini o'zgartirish, rolik o'qining markazdan qochishi, rolik podshipniklarini rejali moylash, hamda konveyer yuklash joylarida rolik tayanchlariga tushayotgan og'irlik kuchlari natijasida yuzaga keladigan to'xtalishlarni oldini olish bo'yicha ishlar hozirgi kunga qadar to'liq o'rganilmagan. Konchilik korxonalaridagi tasmali konveyerlarni tasmasi va rolik tayanchlarining xizmat muddatini uzaytirish, shu bilan birga ta'mirlash ishlarida sarflanadigan vaqtni kamaytirish zaruriyati yuzaga keladi va bu yo'nalish bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish lozim.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Mazkur ilmiy

tadqiqot ishi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №BA-A3-021 – «Rezinatrosli tasmalarning bo‘g‘imlarini ulash resurs tejamkor tizimini va TQK-270 tik qiya konveyerida ishlatiladigan energiya tejamkor uzatma moslamasini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tasmali konveyerning rolik va rolik tayanchlari konstruksiyasini takomillashtirish asosida ularning chidamliligi, ishonchliligi va ishlash muddatini uzaytirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

karyer tasmali konveyerlarining to‘xtalishlariga olib keluvchi asosiy omillarni tadqiq qilish;

tasmali konveyer roliklari hamda tayanchlarining konstruksiyalarini takomillashtirish, ekspluatatsion samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari va holati tahlili;

tasmali konveyerlarning rolik tayanchlariga ta‘sir qiluvchi og‘irlik kuchlari natijasida yuzaga keladigan to‘xtalishlarni oldini oluvchi tayanchning yangi konstruksiyasini ishlab chiqish va tajriba-sinovlaridan o‘tkazish;

rolikka kelib tushayotgan og‘irlik kuchlari tasmali konveyer ish resursiga ta‘sirini hisobga oluvchi matematik model ishlab chiqish;

tasmali konveyer rolik o‘qining markazdan qochishini oldini olish va podshipniklarni almashtirish jarayonini yengillashtirish uchun rolik konstruksiyasini takomillashtirish va tajriba-sinovlaridan o‘tkazish;

tasmali konveyer rolik podshipniklarini moylashning yangi usullarini ishlab chiqish va ularni tajriba-sinovlaridan o‘tkazish;

ishlab chiqilgan yechimlarni qo‘llash samaradorligini texnik–iqtisodiy baholash.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida tasmali konveyerlarning yuk yuklash joylarida joylashgan rolik va rolik tayanchlari olingan.

Tadqiqotning predmetini tasmali konveyer roliklari va rolik tayanchlari ishchi elementlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishi davomida tadqiqotning tajriba-sinov usuli, konchilik korxonasida nazariy va eksperimental tadqiqotlar, «Solidworks», «Python» dasturiy ta‘minotlaridan foydalangan holda ishchi elementlarning konstruksiyasini modellashtirish hamda matematik va raqamli modellarini tahlil qilish, tadqiqotdan olingan natijalarni nazariy umumlashtirish, tasmali konveyer roliklariga tushayotgan og‘irlik kuchlarini matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tasmali konveyerning yuklash joyidagi rolik va rolik tayanchlariga ta‘sir etuvchi kuchlarni taqsimlash imkonini beruvchi prujinaning siqilish masofasini, unig bikrligi, yuk og‘irligi o‘zgarishiga o‘zaro bog‘liqligi asoslangan;

tasmali konveyer rolik konstruksiyasini o‘zgartirish orqali konveyer roliklariga xizmat ko‘rsatishning texnik ko‘rik ishlarining vaqtga bog‘liqligi o‘rnatilgan va roliklarni ta‘mirlash uchun ketgan vaqtni 10 % gacha kamaytirilishi aniqlangan;

konveyer yuklanadigan uchastkasida roliklar ishlash muddati unga tushadigan yuklama natijasida o‘qning vaqt birligida siljishiga bog‘liqligi o‘rnatilgan va uning ta‘sirini kamaytirish uchun rolikning qopqoqli konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

ishqalanish kuchlar asosida paydo bo‘lgan tebranishlarning vaqt birligida rolik tezligi va tezlanishlariga ta‘siri aniqlangan va rolik podshipniklarini moylash usulini qo‘llash bilan tebranishlarning ruxsat etilgan qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

roliklar bardoshlilik va zo‘riqma kuchlariga chidamliligini uzaytirish uchun tasmali konveyerlaening rolik tayanchlariga ta‘sir qilayotgan yuklamalarni taqsimlovchi metall prujina o‘rnatildi va roliklarning xizmat muddatini uzaytirish usuli ishlab chiqilgan;

tasmali konveyer roliklarini ta‘mirlash vaqtini kamaytirish, rolik o‘qini markazdan siljishini oldini olish uchun rezkali qopqoq konstruksiyasini qo‘llash usuli yaratilgan;

tasmali konveyer roliklarining ishlash muddatini oshirish, ishchi holatda yuzaga keladigan zo‘riqma kuchlar asosida titrashlarni va to‘xtalishlarni kamaytirish uchun rolik podshipniklarini moylash usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi ishlab chiqarishdagi eksperimental tadqiqotlar asosida tasmali konveyer rolik va rolik tayanchlari orasiga o‘rnatilgan metall prujina kelib tushayotgan ta‘sir kuchlarini roliklarda bir xil taqsimlashi, tasmali konveyer roliklarini ta‘mirlash vaqtini qisqartirish va rolik o‘qlaridagi kuchlarning teng taqsimlanishini hamda rolik podshipniklarini moylash usuli asosida titrash kuchlarini kamaytirishga erishilgan ijobiy natijalar orqali isbotlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tasmali konveyer yuk yuklash joyi rolik va tayanch rolik ishchi elementlariga ta‘siri matematik modelini ishlab chiqish, konveyer rolik hamda tayanch roliklari konstruksiyasini o‘zgartirish, rolik ishlash davrini uzaytirish uchun rolik podshipniklarini moylash usulidan olingan ilmiy asoslangan natijalar asosida tasmali konveyer ish unumdorligini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tasmali konveyer yuk yuklash joyi rolik va rolik tayanchlari orasiga metall prujinaning o‘rnatilganligi, roliklarning takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqilganligi hamda rolik ishlash muddatini oshirish uchun rolik podshipniklarini moylash usuli ishlab chiqilganligi rolik va rolik tayanchiga ta‘sir qilayotgan kuchlarni teng taqsimlash, roliklarning xizmat muddatini uzaytirish bilan konveyer ekspluatatsion samaradorligini oshirishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tasmali konveyer yuk yuklash joyidagi rolik va rolik tayanchlari ishchi elementlarini takomillashtirish va ekspluatatsion samaradorligini oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tasmali konveyer roligini takomillashtirilgan rezkali qopqog‘i «Qizilqumsement» AJ hamda «Navoiy sheben xom-ashyo» karyerlaridagi tasmali konveyerlarga amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 2024 yil 2 iyuldagi 02/15-1677-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tog‘ jinslarining tasmali konveyerga yuklash nuqtasida qo‘llanilayotgan

roliklarning ishlash muddatini 47-50 % ga oshirish, roliklar hisobiga kelib chiqadigan to'xtalishlarni 35-38 % ga kamaytirish imkonini bergan;

konveyer podshipniklarni moylash naychasi va rolik tayanchining yangi konstruksiyasi «Qizilqumsement» AJ hamda «Navoiy sheben xom-ashyo» karyerlaridagi tasmali konveyerlarga amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 2024 yil 2 iyuldagi 02/15-1677-son ma'lumotnomasi). Natijada, konveyerda umumiy hisobda yuzaga keladigan to'xtalishlarni 5-8 % gacha kamaytirish, tasmali konveyerlar roliklarini almashirish va ta'mirlash uchun sarflanadigan xarajatlarni 23-29 % gacha qisqartirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 1 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan, respublika nashrlarida 5 ta va xorijiy jurnallarda 1 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 112 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida tadqiqotning ahamiyati va dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliliigi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tasmali konveyerlar ekspluatatsion ko'rsatkichlari tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida ochiq konchilik ishlarida tasmali konveyerlarni tizimi ratsional sxemasining ekspluatatsion ko'rsatkichlari, ularni karyer chuqurliklarining oshishi bilan qo'llanilishi, konveyer ishchi elementlari ish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar va ishlab chiqarishda ishlatilayotgan tasmali konveyer roliklari bo'yicha tahlillar keltirilgan. Tasmali konveyerlarning sanoat ko'rsatkichlari «Qizilqumsement» AJ hamda «Navoiy sheben xom-ashyo» konlari misolida ko'rib chiqilgan. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha karyerlarda qo'llaniladigan tasmali konveyerlar tizimini takomillashtirishni va ekspluatatsiya samaradorligini oshirishni asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan va ilmiy tadqiqot tahlillari o'tkazilgan.

Tahlillar asosida tasmali konveyerlarni qo'llashga asoslangan karyerlarni loyihalash ishlarini amalga oshirish, geologik, kon-texnik va tashkiliy omillarning karyer unumdorligiga ta'sirini aniqlash va karyer unumdorligining tog' jinslarini tashish ishlariga bog'liqligini aniqlash, texnologik sxemalarning ishlatilish

ko‘lamini asoslash lozimligi keltirilgan. Karyer unumdorligida tasmali konveyerlar joylashuvining geometrik sxemasi asosidagi karyerlarning joylashuv relyefi va tashilayotgan tog‘ jinsining turiga qarab tanlov muhim ahamiyatga ega (1-rasm).

Tasmali konveyerlarning yuklash joylarida tushayotgan yuk ta‘sirida rolik va rolik tayanchlari ishchi elementlarini takomillashtirish, konstruksiyasini o‘zgartirish va moylash tizimini yangi usulini ishlab chiqish asosida tasmali konveyer samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.



1-rasm. Tasmali konveyerlar joylashuvining geometrik sxemasi


Olib borilgan ilmiy izlanish va tadqiqot tahlillari, rolik konstruksiyasini takomillashtirish va ishonchligini oshirish asosida amalga oshirilishi, karyer tasmali konveyerlari roliklarining aylanmay qolishi hisobiga kelib chiquvchi to‘xtalishlar omillari tadqiq qilinishi, to‘xtalishlarni bartaraf etish asosida tasmali konveyerlarning ekspluatatsion samaradorligini oshiruvchi texnik yechimlarni ishlab chiqish va roliklarga ta‘sir qilayotgan kuchlarni matematik modellashtirish, rolik podshipniklarini almashtirish jarayoniga tayyorlash ishlarini yengillashtirish, rolik o‘qining markazdan qochishini oldini olish, rolik tayanchlariga

tushayotgan zo‘riqmalarni kamaytirish tahlillari o‘tkazilgan.

Dissertatsiyaning «**Tasmali konveyerlarning yuklash joyidagi rolik va rolik tayanchlariga tushadigan og‘irlik kuchlari ta‘siri nazariyasi**» deb nomlangan ikkinchi bobida tasmali konveyerlarning to‘xtalishiga sabab bo‘ladigan salbiy oqibatlar, konveyer roliklari tayanchiga tushayotgan zo‘riqmalarni bartaraf etish usullari, konveyer roliklari va ularning tayanchlariga tushayotgan og‘irlik kuchlari taqsimotini Solidworks dasturiy ta‘minoti orqali modellashtirish va roliklarga tushayotgan kuchlar ta‘sirida metall prujinada hosil bo‘ladigan elastik kuchlari matematik modellashtirish ishlari keltirilgan.


Tasmali konveyer ishchi elementlarini samarali va uzoq muddatga ishlashini ta‘minlab berishda rolik va roliklar tayanchlarining xizmati beqiyosdir. Rolik va rolik tayanchlarga ta‘sir qilayotgan kuchlarni so‘ndirish hamda ushbu kuchlarni to‘g‘ri taqsimlash konveyer ishini sifatli, ishonchli va mustahkam bo‘lishini ta‘minlaydi. 2a-rasmda Solidworks dasturiy ta‘minoti yordamida loyihalangan metall konstruktsiyadan iborat konveyer rolik tayanchlari keltirilgan. Konveyer roliklarining diametri 159 mm qilib olingan va rolik tayanchlari orasidagi masofa 0,5 m oralig‘ida joylashtirilgan. Berilayotgan yuklama konveyer enidan kelib chiqib ($B=1,2$ m), 1 m² ga 500 N dan 4500 N gacha yuklama berildi va natijada mustahkamlangan tayanch roliklarning o‘rta qismiga va rolik podshipniklarida zo‘riqma paydo bo‘ldi, ushbu zo‘riqma kuchi $2.7 \cdot 10^4$ N ga teng (2-rasm).

Ushbu zo‘riqma kuchlari ta’sirida roliklarning o‘z muddatidan avval ishdan chiqishi, podshipniklarning qotib qolishi va rolik o‘qining siljib ketishi kabi konveyer unumdorligiga ta’sir etuvchi salbiy oqibatlar yuzaga keladi.



2-rasm. Mustahkamlangan tayanch rolik yukli holatdagi zo‘riqish sxemasi

Mavjud roliklar tayanchlari konstruksiyasiga o‘zgartirishlar kiritilib, ularga ta’sir qilayotgan kuchlarni taqsimlashga xizmat qiluvchi metall prujina ikki yon tomondagi hamda markazda joylashgan rolik tayanchlariga o‘rnatildi (3-rasm). Metall prujina bikrligi 0,95 bo‘lgan 65G turdagi 14 mm diametrli po‘latdan yasalgan bo‘lib, balandligi 70 mm ni tashkil qiladi. Kelayotgan yuk oqimi prujinali tayanchlarni harakat yo‘nalishi bo‘ylab egilib ketmasligi uchun uning markaziga tarkibini asosiy qismi alyuminiy, 3,8-4,5 % mis, 1,2-1,6 % magniy, 0,3-0,7 % marganes, 0,5 % dan temir va kremniyni tashkil qiluvchi D16 turdagi eng mustahkam dyuraluminiydan yasalgan qalinligi 5 mm rezina qoplamaga ega o‘q joylashtirildi.




3-rasm. Metall prujinali tayanchga ega roliklar

kamayganligi aniqlandi. Roliklarga ta’sir qilayotgan og‘irlik kuchining imitatsion modeli orqali olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, metall prujina tushayotgan zo‘riqmani bir qismini o‘ziga oladi (4a-rasm) va roliklarga tushayotgan zo‘riqmani rolik eni va yuzasi bo‘ylab teng taqsimlaydi (4b-rasm).

Metall prujinali tayanch konstruksiyasi tasmali konveyer qurilmasi roliklari asosi (1), ramaga mahkamlanuvchi oyoqchalari (2), rolik tayanchlari (3), roliklarga o‘rnatilgan prujinalar (4), roliklar (5), rolik o‘qlaridan (6) iborat. Yuqorida berilgan yuklama metall prujinali tayanch konstruksiyasi tasmali

konveyer qurilmasiga ham berildi va natijada konveyer tayanch roliklarida zo‘riqmani

Konveyerning yuk tushish joyi rolik va tayanch roliklar o‘qi hamda podshipnikiga tushayotgan zo‘riqma $2.7 \cdot 10^4$ N dan $1.6 \cdot 10^4$ N ga, ya‘ni, podshipnikka tushayotgan kuch 40 % ga kamayganligi aniqlandi.



4-rasm. Roliklarga ta‘sir qilayotgan og‘irlik kuchining imitatsion modeli orqali olingan natijalar


Rolikka o‘rnatilgan metall prujinaga kuch ta‘sirida o‘zgarishi quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$R_y = k\Delta x \quad \Delta y = \frac{(P_{tasma})(\cos\alpha - 1) + Q_{yuk}(\cos\alpha - 1)}{\Delta k}, \quad (1)$$

Prujinaning siqilish masofasi quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$\Delta h = \sqrt{\left(1 + \frac{(P_{tas} + Q_{yuk}) \sin \alpha}{k}\right)^2 + \left(b + \frac{(P_{tas} + Q_{yuk})(\cos \alpha - 1)}{k}\right)^2} (2) - \sqrt{l^2 + b^2}. \quad (2)$$

Keltirilib o‘tilgan matematik modelda yuk oqimi, prujinani bikrligi va rolikni qiyalik burchagi noma‘lum holda prujinani siqilish masofasini “Python” dasturiy ta‘minoti yordamida natijalar olingan (5-rasm).



5-rasm. Prujinaning siqilishini ifodalovchi grafik

oqibatlari metall prujinali rolik tayanchli konstruksiyasini qo‘llash natijasida

Tasmali konveyerning yuklash joyidagi rolik va rolik tayanchlariga ta‘sir etuvchi kuchlarni taqsimlash imkonini beruvchi prujinaning siqilish masofasi, bikrligi, yuk og‘irligi o‘zgarishi o‘zaro bog‘liqligi o‘rnatildi va uning matematik modeli ishlab chiqildi hamda tasmali konveyerga yuk tushish joyi roliklari va ularning


tayanchlariga tushadigan og‘irlik va zo‘riqma kuchlari keltirib chiqaradigan salbiy

konveyer roliklari va podshipniklariga tushayotgan zo'riqma kuchlari 40 % ga kamayganligi asoslangan.

Dissertatsiyaning «**Tasmali konveyerlarning yuk yuklash joyidagi roliklar konstruksiyasini takomillashtirish asosida ekspluatatsion samaradorligini oshiruvchi texnik yechimlarni ishlab chiqish**» deb nomlangan uchinchi bobida tasmali konveyer roliklariga ekspluatatsiya jarayonida ta'sir etuvchi kuchlar, tasmali konveyer roliklarini ta'mirlash jarayonini yengillashtiruvchi texnik yechim ishlab chiqish va tasmali konveyer roliklari o'qining siljib ketishini bartaraf etish bo'yicha texnik yechimlar keltirilgan.

Tasmali konveyerlar roliklarini ta'mirlash ishlari boshqa elementlarga qaraganda eng ko'p amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, texnik xizmat va ta'mirlash uchun ko'p vaqt ajratilishi konveyer samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.


Tasmali konveyerning yuk yuklash joyi roliklari konstruksiyasiga o'zgartirilish kiritildi va rezba qopqoqli rolik konstruktiv ko'rinishi 6-rasmda keltirilgan. Ushbu konstruksiya sodda, tannarxi arzon, rolikka ortiqcha vazn qo'shilmasligini, xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan malaka oshirish yoki qayta tayyorlov kurslarida o'qish talab etmasligi bilan ajralib turadi. Rezba qopqoqli rolik konstruksiyaning asosiy vazifasi ta'mirlashga tayyorlash vaqtini qisqartirish hamda roliklarning xizmat muddatini oshirishdan iborat.




a – rolik tashqi va b – ichki rezba ochish; v – rezba qopqoqli rolikning ishlab chiqarishdagi ko'rinishi

6-rasm. Tasmali konveyerning rezba qopqoqli roligi

Rezbali qopqoqni rolikka joylashtirish uchun rolik korpusining ichki devoriga qadami 6 mm bo'lgan rezba ochiladi, shundan so'ng qopqoqqa nisbatan tashqi devoriga ham qadami 6 mm bo'lgan o'ng va chap rezbalar ochiladi. Ochilgan o'ng va chap rezbalar rolik korpusiga o'rnatilgan qopqoqning aylanishi davomida yechilib ketmasligini ta'minlash maqsadida qo'llanilgan. Rezba qopqoqli rolik konveyer roliklaridagi aylanmay qolgan podshipniklarni almashtirishda qo'llanilishi, ta'mirlash jarayoniga ketadigan vaqtni kamaytirish, inson qo'l mehnatini yengillashtirish va rolikning ishlash muddatini oshirish ustida olib borilgan izlanishlar natijalari 7-rasmda ko'rsatilgan.



a.



b.

7 - rasm. Rezba qopqoqli rolikning me'yoriy ko'rsatkichlari

Tasmali konveyerlarda qo'llanilayotgan roliklarni ta'mirlash jarayonini yengillashtirish uchun ularga ko'rsatiladigan xizmat turlari va ishlash muddati aniqlashda dastlabki hamda hozirgi ta'mirlash vaqtlarini matematik tahlili amalga oshirildi.

Rezba qopqoqli rolik ornatilishi bilan rolikni ta'mirlash uchun sarflanadigan vaqt quyidagicha aniqlandi.

$$\sum_{i=1}^m t = t_2, \quad (3)$$

bu yerda: n va m mavjud va takomillashtirilgan so'ng ta'mirlash vaqtlaridagi ish jarayonlari hisoblanadi.

Ta'mirlash jarayoni bir necha bosqichdan iboratligi hisobiga takomillashtirilgan ta'mirlash usuli bo'yicha ish davomiyligini topamiz

$$\sum_{i=1}^m t = t_1 + t_2 + \dots + t_m. \quad (4)$$

Tasmali konveyer roligini ta'mirlab, ishchi holatga keltirish uchun topshiriq t_t , yetkazib berish t_{ye} , almashtirish t_{a1} , ishga tushirish t_{ish} va qo'shimcha vaqtlar t_q vujudga keladi. Demak, umumiy vaqt quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\sum_{i=1}^m t = t_{n2} + t_{y2} + t_{a2} + t_{ish2} + t_{q2}, \quad i = 1, m = 5. \quad (5)$$

Ta'mirlash jarayonida yuzaga keladigan to'xtalish vaqtlaridagi o'zaro tengsizlikni hisobga olgan holda umumiy vaqtlarni bir-biriga taqqoslaymiz.

$$\sum_{i=1}^n t > \sum_{i=1}^m t; \quad (6)$$

$$t_1 > t_2.$$

Ta'mirlash ishlaridagi vaqtlarni o'zaro tenglik asosida bo'lishi uchun ta'mirlash vaqtlar farqi koeffitsiyentini topamiz.

$$t_1 \cdot k = t_2 \Rightarrow k = \frac{t_1}{t_2}; \quad (7)$$


$$k = 1.05 \div 1.1.$$

Avvalgi ta'mirlash ishlarini va takomillashgan vaqtlar farqini matematik tarzda ifodalasak, farq 10% ni tashkil etishi aniqlandi:

$$\eta = \frac{\sum_{i=1}^n t - \sum_{i=1}^m t}{\sum_{i=1}^m t} \cdot 100\% = \frac{1,1-1}{1} \cdot 100\% = 10. \quad (8)$$

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida rezba qopqoqli rolik konstruksiyasi qo'llanilishi 10 % yillik ta'mirlash ishlarini kamaytirdi, ya'ni, yillik ta'mirlash ishlarini nazariy jihatdan 70,4 mexanik soatga tejalishi asoslandi.

Tasmali konveyerlar roliklarini yig'ish vaqtida yuqorida ta'kidlab o'tilganidek payvandlab qotirish usuli keng qo'llanilmoqda. Roliklarni yig'ishda payvandlab qotirish usulidan foydalanish jarayonida rolik o'qini to'g'ri o'lchamlar asosida markazga joylashtirib olish juda qiyinchilik tug'dirmoqda. Shuningdek, roliklar ekspluatatsiyasi jarayonida rolik o'qining markazdan siljishi natijasida roliklarning tez ishdan chiqishi yuzaga kelmoqda. Tasmali konveyer roliklarini payvandlash va rezba qopqoqli konstruksiyasini qo'llash orqali olib borilgan nazariy tadqiqotlar va ishlab chiqarishga qo'llanilgan amaliy sinovlar Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti «Konchilik elektr mexanikasi» kafedresi, «Qizilqumsement» AJ hamda «Navoiy sheben xom-ashyo» karyerlaridagi tasmali konveyerlarda o'tkazilgan. Tajriba-sinov ishlari 2 xil holatdagi roliklar misolida olib borilgan bo'lib, ular tasmali konveyer yuk yuklash joyidagi roliklar ishchi holatida qo'llanilayotgan payvandlangan va rezba qopqoqli konstruksiyali rolik o'rnatilganda VIBXpert// qurilmasi yordamida olib borildi. VIBXpert// qurilmasi tajriba-sinov ishlaridagi natijalarni olish uchun mo'ljallangan qurilma bo'lib, roliklar yon qismining payvandlab yopish va rezba qopqoqli o'rnatilishi natijasida o'qning siljish darajasi o'rganilgan.



a – mavjud usulda va b – takomillashtirilgan usulda

8-rasm. Roliklardagi vaqtning siljishga bog'liqlik grafiki

Keltirilib o'tilgan grafiklardan ko'rinib turibdiki, rolik qopqoqlarini payvandlab qotirib ishlatilganda (8a-rasm) yuk yuklash joyidagi tayanchlarga mahkamlangan roliklarga yuk kelib tushishdan ko'p vaqt o'tmasdan siljish boshlanishi aniqlandi, ya'ni rolik o'qida grafikning x o'qi bo'yicha joylashgan vaqt birligi 1,25 s da y o'qida joylashgan rolik o'qining siljishi 142 mk m ni tashkil etdi. Ushbu holat rolik ish jarayonida juda qisqa vaqtda katta siljish hosil bo'lganligini bildiradi va rolik ishiga salbiy ta'sir etadi, ushbu holatda vaqtni oshirish va siljishni

kamaytirish konveyer roliklari xizmat muddatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tajriba sinovni rezba qopqoqli konstruksiyali roliklarning ish davomiyligida ham olib borildi. Rolik o'qida 1,65 s vaqt oralig'ida eng katta siljish 63 mk m ni tashkil etdi. Bu yerda vaqt va siljish qadamida ijobiy o'zgarishlar yuzaga keldi (8b-rasm). Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki rolik qopqoqlarini payvandlash asosida o'rnatish usulida yuzaga kelgan siljishning eng yuqori ko'rsatgichi 142 mk m ni rezba qopqoqli rolik konstruksiyasi usulini qo'llash orqali rolik o'qidagi siljishni 63 mk m ga tushirildi, ya'ni siljishlar 2,25 martaga kamaytirildi. Bundan tashqari rolik o'qidagi siljishlar vaqt birligida bajarilganligi uchun, rolik qopqoqlarini payvandlash asosida o'rnatish usulida yuzaga kelgan siljishning eng yuqori ko'rsatgichi 1,25 s da yuzaga kelgan bo'lsa, rezba qopqoqli rolik konstruksiyasi usulini qo'llash orqali rolik o'qidagi siljishni eng yuqori ko'rsatgichi 1,65 s ga yetkazildi. Bu esa vaqtning 32 % ga oshirilganidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning «**Tasmali konveyerning roliklari xizmat muddatini oshirish usulini ishlab chiqish**» deb nomlangan to'rtinchi bobida tasmali konveyer yuk oqimi natijasida rolikda vujudga keladigan dinamik va kinematik parametrlar tahlili, tasmali konveyer rolik podshipniklarini moylash usulini takomillashtirish va rolikning xizmat muddatini oshirish, taklif etilayotgan texnik yechimlarini ishlab chiqishdagi iqtisodiy samaradorlik natijalari keltirilgan.

Ochiq kon korxonalarida tasmali konveyer o'ziga sarflayotgan energiya sarfi boshqa turdagi transport vositalaridan keskin farq qiladi va u taxminan 15-20 % ni tashkil qiladi. Yuk tashiyotgan konveyer tasmasiga roliklar harakatining mukammallashishi, ko'rsatayotgan qarshilik kuchlarini kamaytirish bilan energiya tejashning eng samarali usuli hisoblanadi. Tasma hamda tog' jinslari o'rtasidagi statik ishqalanish, roliklar orasidagi masofaning o'zgarishi, tasma va roliklarning o'zaro ta'siri, konveyer stavi bo'ylab rolik podshipniklarining ishqalanishi, tasmaning deformatsiyalari natijasida tortish organi harakatiga qarshilik kuchi paydo bo'ladi. Tasmali konveyer harakat tekisligi bo'yicha ikkita o'qlarga ajratilib proyeksiyalanadi:

$$\begin{aligned}\sum F_y &= 0, \\ \sum F_x &= ma_x.\end{aligned}\quad (9)$$

Tasmali konveyerlarni tasma harakati yo'nalishi bo'yicha aylanayotgan rolikka quyidagi kuchlar ta'sir qiladi.

$$F_T - F_{ish} + G \sin(\alpha) + G_{yuk} \sin(\alpha) = \sum m a_x \quad (10)$$

Tasmaning tezligi va tezlanishini quyidagicha aniqlanadi:

$$a_x = \frac{dv_x}{dt}; \quad (11)$$

$$F_T - F_{ish} + \sin(\alpha)(G + G_{yuk}) = \sum m a_x; \quad (12)$$

$$a_x = \frac{F_T - F_{ish} + \sin(\alpha)(G + G_{yuk})}{\sum m}; \quad (13)$$

$$\frac{dv_x}{dt} = \frac{F_T - F_{ish} + \sin(\alpha)(G + G_{yuk})}{\sum m}. \quad (14)$$


Olib borilgan hisoblashlar natijalari shuni ko'rsatadiki, tasmali konveyerlar roliklarining bir tekis ishlamasligi yuk oqimi va tashqi kuchlar ta'siriga bog'liq bo'ladi:

$$\Delta v = \frac{(\sum F)t}{\sum m}. \quad (15)$$

Rolikning ravon va tekis ishlashi uchun kelib tushayotgan barcha tashqi kuchlar teng ta'sir etuvchisi o'zgarmas holatda qolishi lozim. Inersiya kuchlari va tushayotgan yuk oqimi og'irligi me'yorlashganda rolikka kompensatsiya qiluvchi yana bir omilli ichki kuchlar ta'sir qilishi zarur.


Konchilik korxonalarida qo'llaniladigan tasmali konveyerlarni uzoq vaqt davomida ishlatish uchun rolik podshipniklarni moylab turish va to'xtab qolishini oldini olish zarur. Konveyer roliklarining to'xtab qolishiga sabab bo'luvchi nogabarit tog' jinslari, abraziv tog' jinslari, notekis yuk oqimi, podshipniklarning vaqtida moylanmasligi, rolik o'qining qochishi, changlar, namlik va boshqa omillarning roliklarga ta'sirini oldini olish qiyin bo'lganligi, roliklarning ishonchligini oshirish uchun rejali moylash usulini ishlab chiqishni talab qiladi.

Olib borilgan izlanishlar natijasida rolik o'qidan o'tilgan naycha orqali podshipniklarni moylash usulini yaratish bilan yuzaga keladigan kamchiliklar bartaraf etildi. Bunda rolikning turg'un holatda turadigan validan podshipnikkacha bo'lgan masofada naycha o'tildi, konveyer rejali ta'mirlashga to'xtagan vaqtda rolik podshipniklariga moy jo'natildi. Rejali moylash usulida rolik o'qidan o'tkazilgan naycha sxemasi orqali tasmali konveyer roligining tuzilishi podshipnik va o'qni tashqi mexanik ta'sirlardan himoya qilish uchun korpus (1), rolikning konveyer yuritmalariga ortiqcha yuklama tushirmasdan aylanishini ta'minlab berish uchun mo'ljallangan podshipnik (2), rolikni tayanchlariga mahkamlash va podshipnikni ushlab turish uchun o'q (3), podshipniklarni chang hamda namlikdan saqlovchi labirint zichlagich (4), podshipniklarni moylash uchun naycha (5) dan iborat (9-rasm).



9-rasm. Rolik podshipniklarini naycha orqali moylash

Konveyer roliklarining joylashuviga qarab moy yuboruvchi naychani o'rnatilish joyi o'zgaradi, 0-36 gradus oralig'ida joylashgan yon roliklarga naycha o'q bo'ylab o'tiladi, o'rtadagi rolik o'qiga yuqori tarafidan 90 gradus burchak ostida o'tiladi, bunga sabab o'rta rolik o'qiga gorizontaal o'q yo'nalishi bo'ylab moy yuborilishiga roliklar joylashuvi imkon bermasligidadir. 10-rasmda ikki usulda ham moy yuborish uchun mo'ljallangan naychalarning qir-qimlari keltirilib o'tilgan.



a – oʻrta va b – yon roliklarni moylash uchun moʻljallangan naycha usuli


10-rasm. Naycha oʻrnatilgan rolik qirqimi

Rolik podshipniklariga moy joʻnatishda birinchi navbatda moylash ishlarida qoʻllanilib kelinayotgan shprintsqa qovushqoqligi yuqori boʻlmagan moy olinadi, naychada qaytuvchanlik xususiyatiga ega boʻlgan qopqoq boʻlib shprints kiritilgan vaqtda naycha devoriga tegadi, shundan soʻng naycha boʻylab moy joʻnatiladi. Naycha kanali boʻylab joʻnatilgan moy podshipnik sharikchalari joylashuv nuqtasiga kelib tushadi. Natijada rolik sharikchalari hamda ichki va tashqi halqalari orasiga kelib tushgan moy ular orasidagi ishqalanish kuchlarini kamaytiradi, ishqalanish kuchlarining kamayishi hisobiga konveyer roliklarining aylanish tezligi ham texnik xarakteristikasida keltirilib oʻtilgan koʻrsatkichlar boʻyicha ishlaydi.

Konveyer rolik oʻqiga toʻgʻri chiziq boʻylab 70 mm uzunlikdagi podshipnik va zichlagichning bir-biriga tegib turadigan nuqtasiga moy tushishi moʻljallangan 6 mm diametrga ega boʻlgan naycha oʻtiladi. Oʻtilgan naychaga 90 gradus burchak ostida joylashgan 4 mm lik ikkinchi naycha boʻladi, ikkinchi naychanning diametri kichikligi hisobiga moy bosimida oʻzgarish yuzaga kelib moʻljallangan nuqtaga yetib borishi tezlashadi. Rolik oʻqidan naycha oʻtish orqali moylash ishlari ikki xil holatda joylashgan roliklar uchun alohida-alohida tuzilish bilan ishlab chiqilgan. Konveyer rolik podshipniklari ish samaradorligini aniqlash maqsadida 2 xil holatda tajriba-sinov ishlarini amalga oshirildi: ishchi holatdagi rolik va oʻrnatilgan naycha yordamida moylangan rolik podshipniklarning texnik holatini koʻrikdan oʻtkazish uchun moʻljallangan VIBXpert// qurilmasi yordamida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Olingan natijalar aniqligi yuqori darajada boʻlishi uchun koordinatalar sistemasi boʻyicha uchta oʻq boʻylab tekshirib koʻrildi, yaʼni rolik oʻqiga nisbatan toʻgʻri, gorizontal va vertikal yoʻnalishlarda tajribalar oʻtkazildi.


Tasmali konveyer roliklaridagi podshipniklarni hozirgi holatini va naycha sxemasi orqali moylash usulidan foydalanib oʻtkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari olindi (11-rasm). Tasmali konveyer yuk tushish joylari roliklarining moylanmasdan oldingi holatdagi rolik ish davomiyligida vaqtning tezlikka bogʻliqlik grafigi keltirilgan boʻlib, rolik 65 mm/s vaqt birligida eng katta 9 mm siljishga ega boʻlmoqda (11a-rasm). Roliklarining rejali moylangan holatdagi vaqtning tezlikka bogʻliqlik grafigida esa, yuqoridagidan farqli ravishda eng katta siljish 5 mm ni 15 mm/s da hosil boʻlganligini koʻrish mumkin (11b-rasm). Ushbu

holatda vaqtning 5 barobarga qisqarishi va rolik o'qining titrashlari 45 % ga kamaytirilganligi aniqlangan.



11 - rasm. Roliklarning moylanmagan (a) va rejali moylangan (b) holatdagi vaqtning tezlikga bog'liqlik grafigi

Tasmali konveyerlarning iqtisodiy samaradorligini hisoblashda, uning ishchi holatida yuzaga keladigan sarf-xarajatlari aniqlanadi. Bunda, tasmali konveyerning ishonchli ishlashining ko'rsatkichlariga asoslangan holda, uning to'xtalishlariga ketadigan vaqti, ta'mirlash xarajatlari, qo'shimcha xarajatlar hisobga olinadi (12-rasm).



a) bazaviy tasmali konveyer roliklari va tayanchlari xarajatlari;

b) takomillashtirilgan tasmali konveyer roliklari va tayanchlari xarajatlari

12 - rasm. Bazaviy va takomillashtirilgan tasmali konveyer roliklari va tayanchlari harajatlarining solishtirma grafigi

Taklif etilayotgan rolik va roliklar orasiga metall prujina o'rnatilish usuli, rolik qopqoqlarini rezbalı o'rnatish usuli va rolik podshipniklarini rejali moylashni naycha usulidan foydalanib, konveyer transporti elementlarini ta'mirlash ishlariga sarflanadigan xarajatlar bir konveyer yuk yuklash qismi uchun hisoblanganda 14 mln. so'mga kamaytirildi.

Ishlab chiqilgan texnik ishlanmalar asosida, tasmali konveyer roliklar tayanchlariga prujina, rolik korpusiga rezbalı qopqoq va o'qqa moylash naychasi o'rnatilishlari evaziga uning ishlash muddatini 47-50 % ga oshirish, roliklar hisobiga kelib chiqadigan to'xtalishlarni 35-38 % ga, umumiy hisobda yuzaga keladigan to'xtalishlarni 5-8 % gacha kamaytirish, tasmali konveyerlar roliklarini almashtirish yoki ta'mirlash uchun sarflanadigan xarajatlarni 23-29 % gacha qisqarishi aniqlandi.

XULOSA

«Konchilik korxonalaridagi tasmali konveyerlar roliklari ish samaradorligini oshirish usullarini ishlab chiqish» mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Tasmali konveyer roliklarning ishdan chiqishining asosiy sabablari, konveyerga texnik xizmat ko'rsatish ishlari amalga oshirilganda rolik podshipnikining moylanmasligi 37 % ni, chang zarralarining tiqilib qolishi 38 % ni tashkil etadi va ushbu rolikdagi kamchiliklarni bartaraf etish, karyer tasmali konveyerlari roliklarining aylanmasdan to'xtab qolishi hisobiga kelib chiquvchi to'xtalishlarning asosiy omillarni tadqiq qilish, to'xtalishlarni bartaraf etish asosida tasmali konveyerlarning ekspluatatsion samaradorligini oshiruvchi texnik yechimlarni ishlab chiqish va roliklarga ta'sir qilayotgan kuchlarni matematik modellashtirish, rolik podshipniklarini almashtirish jarayoniga tayyorlash ishlarini yengillashtirish, rolik tayanchlariga tushayotgan zo'riqmalarni kamaytirish ishlari ustida ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

2. Rolik tayanchi va roliklar o'rtasiga metall prujina o'rnatilishi natijasida konveyer roliklarini shikastlanishini, to'xtab qolishini, og'irlik kuchlariga bardoshlilikini, zo'riqma kuchlariga chidamliligini uzaytirish uchun rolik va rolik o'qlariga yuqori va pastki, gorizontal va vertikal ta'sir etuvchi kuchlar asosida prujinaning siqilish masofasi, bikrligi, rolikning o'rnatilish burchak kattaligi, tasmaning texnik ko'rsatgichlardagi kattaliklarining o'zaro bog'liqligi matematik modeli ishlab chiqilgan.

3. Konveyer rolik tayanchlari va roliklar orasiga balandligi 70 mm, bikrligi 0,95 bo'lgan 65G turdagi 14 mm diametrlik po'latdan yasalgan metall prujina o'rnatildi, yuk oqimi prujinali tayanchlarni xarakat yo'nalishi bo'ylab egilib ketmasligi uchun uning markaziga tarkibini asosiy qismi alyuminiy, 3,8-4,5 % mis, 1,2-1,6 % magniy, 0,3-0,7 % marganes, 0,5 % dan temir va kremniyni tashkil qiluvchi D16 turdagi eng mustahkam dyuralyuminiydan yasalgan qalinligi 5 mm rezina qoplamaga ega o'q joylashtirilgan. Roliklarga tushayotgan zo'riqma rolik eni va yuzasi bo'ylab teng taqsimlanganligi va rolik o'qi va podshipnigiga tushayotgan zo'riqma $2,7 \cdot 10^4$ N dan $1,6 \cdot 10^4$ N ga kamayganligi, ya'ni podshipnikka tushayotgan kuch 40 % ga kamayganligi aniqlangan.

4. Tasmali konveyerlarda rezba qopqoqli rolik konstruksiyasi qo'llanilishi yuk yuklash joylarida yillik ta'mirlash ishlarini 10% ga kamaytirdi, yillik ta'mirlash ishlarini nazariy jixatdan 70.4 mexanik soatga tejalishi asoslandi,

natijada ta'mirlash vaqtlar farqi koefitsientini $k=1,05-1,1$ gacha ekanligi isbotlangan.

5. Rezba qopqoqli rolik konstruksiyasini o'rnatish natijasida rolik o'qini bo'ylama, gorizonta va vertikal holatida vaqt birligi ichida aylanishlar sonini siljishga bog'liqligi o'rnatildi va natijada rolik o'qi markazdan qochishini oldini olish 2,25 martaga kamaytirildi va vaqt esa 32% ga oshirilgan.

6. Rolik o'qidan moylash naychasi sxemasi asosida tasmali konveyer rolik podshipniklarini rejali moylash usuli ishlab chiqilgan, natijada roliklarning titrashi 45 % ga kamaytirilganligi va vaqtning 5 barobarga qisqarganligi aniqlandi hamda rolik ishlatilish samaradorligining oshirilishi bilan konveyer to'xtalishlari 5-8 % ga kamaytirilgan.

7. Taklif etilayotgan rolik va rolik tayanchlar orasiga metall prujina o'rnatilish usuli, rolik qopqoqlarini rezba o'rnatish usuli va rolik podshipniklarini rejali moylashni naycha usulidan foydalanib, konveyer transporti elementlarini ta'mirlash ishlariga sarflanadigan xarajatlar bir konveyerning yuk yuklash qismi uchun hisoblanganda 14 mln. so'mga kamaytirilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.17/04.06.2021.Т.06.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАВОЙСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАВОЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ПОЛВОНОВ НУРБЕК ОМОНБОВЕВИЧ

**РАЗРАБОТКА СПОСОБОВ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ
РАБОТЫ РОЛИКОВ ЛЕНТОЧНЫХ КОНВЕЙЕРОВ НА
ГОРНОДОБЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ**

04.00.16 – Горные машины

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Навои – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2024.2.PhD/T4619

Диссертация выполнена в Навоийском государственном горно-технологическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен в веб-странице Научного совета (www.ndki.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Атакулов Лазизжон Нейматович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: Эгамбердиев Илхом Пулатович
доктор технических наук, профессор

Тошов Жавохир Буриевич
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат

Защита диссертации состоится 26 декабря 2024 года в 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.17/04.06.2021.T.06.02 (адрес: 210100, г. Навои, ул. Махмуда Таробий, 72. Зал заседаний Навоийского государственного горно-технологического университета. Тел.: (79) 223-23-32; факс: (79) 223-49-66; e-mail: info@ndki.uz, nsmi@gmail.com).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Навоийского государственного горно-технологического университета (зарегистрирован за № 172). Адрес: 210100, г. Навои, ул. Махмуда Таробий, 72. Тел.: (79) 223-23-32; факс: (79) 223-49-66.

Автореферат диссертации разослан «11» декабря 2024 г.

(реестр протокола рассылки № 155 от «7» декабря 2024 г.).




И.Т.Мислибаев
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор


Р.У. Джураев
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор


А.Б.Тухташев
Заместитель председателя научного семинара при Научном
совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире транспортировка полезных ископаемых в процессах горнодобывающей промышленности составляет 70 % от общих затрат на добычу полезных ископаемых, что повышает внимание к транспортным средствам.

Применение ленточно-конвейерного транспорта приводит к сокращению расстояния транспортировки, снижению уровня загрязнения окружающей среды, повышению энергоэффективности. Возникновение напряжений от сил, действующих на ролики и опорные ролики и их элементы в зонах загрузки ленточного конвейера, приводит к быстрому выходу из строя роликов в этой зоне и отрицательно влияет на эффективность работы конвейера, приводящий к увеличению количества плановых и внеплановых остановок конвейерного транспорта. Суммарная плановая остановка из-за неисправностей, возникающих на роликах ленточного конвейера и опорах роликов, вызванных вышеперечисленными факторами, составляет 23,7%. Поэтому в развитии горнодобывающей промышленности, ленточно-конвейерный транспорт все больше значение имеет при транспортировке полезных ископаемых и горных пород, которая требует модернизации, локализации, переоснащения, их совершенствования, а также повышения эффективности работы роликов и роликовых опор ленточных конвейеров и качества ремонтных работ.

